

социальной ответственности менеджмента можно представить в виде шести элементов: экологическая культура менеджеров, их нравственное самосознание, ответственная кадровая политика организации, ответственность перед потребителями и партнерами, «социальный пакет» организации, социальные программы и благотворительные акции.

Формирование социальной ответственности будущих менеджеров осуществляются в рамках двух факторов: целенаправленном учебном процессе и воспитательном пространстве вуза.

Основными путями воспитания социальной ответственности будущих менеджеров являются: развитие экологической культуры; формирование нравственного самосознания; освоение ответственной кадровой политики; изучение возможностей и форм «социального пакета»; формирование ответственности перед потребителями и партнерами; изучение возможных социальных и благотворительных программ.

Литература

1. Андрушків, І. С. Соціальна відповідальність і соціальна етика в менеджменті / І.С. Андрушків, О.Е. Кузьмін. – Львів, 2005.
2. Володько, В.Ф. Міжнародний менеджмент / В.Ф. Володько; 2-е изд. – Минск: Амалфея, 2009. – 448 с.
3. Лукичева, Л.И. Управление персоналом: курс лекций / Л.И. Лукичева. – М.: Омега-Л, 2006. – 264 с.
4. Михалева, Е.П. Менеджмент / Е.П. Михалева. – М.: Юрайт-Издат, 2007. – 175 с.
5. Пименова, О.В. Социальная ответственность в системе корпоративного управления (на материалах легкой промышленности): автореф. дисс... канд. экон. наук / О.В. Пименова. – СПб, 2009. – 22с.
6. Плотникова, Е.В. Социальная политика современных российских предприятий: традиции и инновации / Е.В. Плотникова // Журнал исследований социальной политики. – 2005. – № 5. – С. 397-406.
7. Салов, Е.И. Экологическая культура – основание целостного подхода к теории и практике экологического менеджмента (информационно-управленческий и синергично-философские аспекты) / Е.И. Салов, С.Е. Салова // ВИНТИ. Серия «Проблемы окружающей среды и природных ресурсов». – 2004. – № 3. – С. 63-74.

РЕЗЮМЕ. Мақолада менежментнинг ижтимоий масъулиятининг моҳияти рейтинг пирамидаси ва агрегатдаги бир қатор элементлар кўринишида кўриб чиқилади. Ижтимоий масъулиятни шакллантиришнинг иккита омили кўрсатилган: мақсадли ўқув жараёни ва университетнинг таълим майдони. Бўлажак менежерларнинг ижтимоий масъулиятини шакллантиришнинг асосий йўллари ўрганилади: экологик маданиятни ривожлантириш; ахлоқий онгни шакллантириш; масъулиятли кадрлар сиёсатини ўзлаштириш; имкониятлар ва шаклларни ўрганиш; истеъмолчилар ва шериклар олдидagi жавобгарликни қабул қилиш; мумкин бўлган ижтимоий дастурлар ва хайрия ҳаракатларини ўрганиш.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются сущность социальной ответственности менеджмента в виде рейтинговой пирамиды и в совокупности ряда элементов. Представлены два фактора становления социальной ответственности: целенаправленный учебный процесс и воспитательное пространство вуза. Исследованы основные пути становления социальной ответственности будущих менеджеров: развитие экологической культуры; формирование нравственного самосознания; освоение ответственной кадровой политики; изучение возможностей и форм; принятие ответственности перед потребителями и партнерами; изучение возможных социальных программ и благотворительных акций.

SUMMARY. The article discusses the essence of the social responsibility of management in the form of a rating pyramid and a number of elements in the aggregate. Two factors of the formation of social responsibility are presented: a purposeful educational process and the educational space of the university. The main ways of formation of social responsibility of future managers are investigated: development of ecological culture; formation of moral consciousness; mastering a responsible personnel policy; study of possibilities and forms; acceptance of responsibility to consumers and partners; study of possible social programs and charity events.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVSHILARINING PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJODIY QOBILİYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

G.M.Davronova – katta o'qituvchi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: Ijodkor o'qituvchi, ijodkor shaxs, ijodiy qobiliyat, pedagogik mahorat, qobiliyat, musiqa ta'limi, amaliy dars, mashg'ulot innovatsion texnologiya.

Key words: Creative teacher, creative person, creative ability, pedagogical skill, ability, music education, practical lesson, training, innovative technology.

Ключевые слова: Творческий педагог, творческая личность, творческая способность, педагогическое мастерство, способность, музыкальное образование, практическое занятие, обучение, инновационная технология.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim mazmuniga ham izchil ravishda o'zgartirishlar kiritish borasida —ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [2:24].

Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 46 maddasida Pedagog xodimlarning majburiyatlari xususida so'z borganda, o'quv mashg'ulotlarni sifatli o'tkazilishi alohida ta'kidlangan [1].

Ta'lim tizimi olib borilayotgan keng islohatlar har bir o'qituvchidan tashabbuskorlik, ijodkorlik, keng dunyoqarashga ega, kasbiy faoliyatidagi mavjud muammolarini yeshimini topa oladigan, tafakkuri keng bo'lmoqlikni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Rrezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli kitobida muhim muammolardan biri, - pedagoglar va professor o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur ekani aytib o'tilgan [3:45].

Musiqqa o'qituvchilari va musiqqa rahbarlari uchun ta'lim muassasalaridagi (maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, musiqqa va san'at, umumta'lim maktablarida) darslar, mashg'ulotlar musiqiy pedagogik ijodkorlikning bosh asosi hisoblanadi.

Musiqiy pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy kayfiyatda tashkil etilishi lozim. O'sib borayotgan yosh avlodga o'z bilim va tajribalarini uzatish jarayonida musiqqa o'qituvchisi pedagogik mahoratini, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiladi.

"Ijodkor shaxs", "ijodiy yondashuv", "ijodiy yutuqlar", "ijodiy o'ylang", "ijodkorlikning namoyon bo'lishi" ... Ushbu tushunchalar jamiyatda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, zamonaviy kasbiy mahorat ko'rsatkichlarini aniqlashning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, eng yaxshilar orasida eng yaxshisi hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyatni shakllantirish – bosqishma-bosqich hal qilinadigan muammodir. Shaxs ijodiy qobiliyati kasbiga qadriyatli yondashuvda, amaliy mashg'ulotlar, turli tadbirlarni tashkil etishga o'rgatish kabi faoliyatlar ta'sirida shakllanadi. Ijodiy qobiliyat ^{faoliyat} jarayonida talabada asta-sekin ishning qaysi joyini, nimani o'zgartirish, yaxshilash, takomillashtirish ushuni nimalarga e'tibor berish masalasini o'ylash tamoyili vujudga keladi. Natijada mavjud bilimlarni taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish va ijod jarayonida kelib chiqadigan vazifalarga muvofiqlashtirish, ko'zda tutilgan yechim umumiy tuzilishini tasavvur etish zarurati tug'iladi. Shunday qilib, umumiy holda ijodiy qobiliyatlar mavjud muammoni samarali yechimini tez va aniq torishga yordam beradi. Shundan kelib shiqib, ijodiy qobiliyatlarga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiqdir:

Ijodiy qobiliyatlar – bu turli ijodiy faoliyatning samarali bajarilganligini aniqlaydigan talabning individual psixologik xususiyati bo'lib, talaba faoliyatida turli ijodkorlik ko'rinishlari, badiiy-ijodiy, musiqiy-ijodiy, ilmiy-ijodiy, pedagogik mahorat, musiqiy qobiliyatlar, texnik ijodkorlik kabilarda namoyon bo'ladigan jarayondir.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik mahorat, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim ^{jihatlari} o'rganilar ekan, avvalo, musiqqa san'ati va ta'lim – tarbiyasini xalqimiz va millatimizning ma'naviy hayotida, yosh avlodni badiiy – ^{estetik} tafakkurini yuksaltirishda, qalbida insoniy fazilatlarini kamol tortirish bilan ahamiyatlidir.

Musiqqa orqali dunyoqarashni, ahloqiy, ma'naviy, aqliy, mexnat, jismoniy tarbiyani shakllantirish o'ziga xos xususiyatga ega. Ahloqiy, ma'naviy tarbiya, insonparvarlik, niyat va harakatlarning pokligi, ^{ishonsh} ahloq normalarini ishlab chiqish, Vatanga muhabbat, ^{vatanparvarlik} baynalminallik va boshqa tushunchalar bilan bog'liq. Musiqqa san'ati anashu hissiyotlarni tovushli badiiy obrazlarda ifodalaydi. Musiqiy badiiy obrazlarning nozikligi, ohangdorligi, lirikligi eng nafis va noyob tuyg'ularga ta'sir etish imkonini beradi. Shu bilan birga aniq ritm, dramatism, ohanglar keskinligi, tantanavorligi, garmoniyaga boyligi insonga dadillik, g'urur, jasorat, Vatanni himoya qilishga tayyorgarlik tuyg'usini uyg'otadi [4:31].

Jamiyatning ijtimoiy yangilanishi sharoitida musiqiy ta'limning natijalari va samaradorligi inson tomonidan asl madaniy qadriyatlarni va ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va ko'paytirishni qanday ^{ta'minlayotgani} bilan emas, balki jamiyat a'zolarining og'li va mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligi bilan belgilanadi.

Muayyan musiqqa, shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantiradi, ma'naviy salohiyatini oshiradi. Musiqqa badiiy madaniyat hodisasi sifatida inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi, odamlar o'rtasidagi ijobiy muloqotni rivojlantiruvchi vositadir.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis sifatida yetishib chiqayotgan barcha bo'lajak musiqqa o'qituvchilarni, musiqqa ta'lim tizimining barcha jabhalarida birdek musiqqa darslarining spesifik xususiyatiga qo'yilgan talablarni

mukammal darajada bajarishga qodir deb bo'lmaydi. Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatni shakllantirish, pedagogik mahoratini oshirish orqali, darslarni samarali va qiziqarli tashkil qilish imkoniyati ortadi.

Shu o'rinda savol tug'uladi, musiqqa o'qituvchisi mutaxassis kadr sifatida pedagogik mahoratni qanday samarali egallashi mumkin? – Shu o'rinda R.I. Chaykovskiyning quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: "Eng avvalo mexnat, mexnat va yana mexnat qilish zarur. Hatto zakiiy aql egasi bo'lgan kishi ham, mashaqqatli mexnat qilmas ekan, nafaqat buyuk, balki, o'rtamiyona narsani ham yarata olmaydi"[4:15]. Darhaqiqat, jamiyatimizda musiqqa o'qituvchilaridan serqirralik, ijodkorlik, ijro texnikasida mukammallikka erishishlari ushuni tinimsiz o'z ustida ishlash, ko'proq mexnat qilish talab etiladi.

Shuni alohida takidlash joizki, yangi O'zbekistonni ravnaq torishida xalqimizning ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirishda musiqqa darslari fan sifatida keng va badiiy tafakkurga ega shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni jamiyatimizning har bir a'zosi (avvalo musiqqa o'qituvchisi, maktab direktori, bog'cha mudirasi, ota – onalar va boshqalar....) anglab yetishi maqsadga muvofiqdir. Zero, o'quvchi - yoshlar tarbiyasida hammamiz birdek mas'ulmiz....

Musiqqa ta'limida har bir o'quvchining o'z badiiy imkoniyatlarini ochish va ijodiy rivojlanishi ushuni yanada kengroq shart-sharoitlar yaratish vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o'quvchilarda, kelajakda qaysi kasbni tanlashlaridan qattiq nazar, badiiy estetik tarbiyasi, yuksak ma'naviyat va keng dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa darslari aslida boshidan oxirigacha ijod darsi. Ammo bugungi kunda musiqqa darslari ijod darsi sifatida tashkil qilinayadimi? Bunday ijod darslari musiqqa o'qituvchilarni zimmasiga qanday ko'nikma, malakalarni va qobiliyatlarni talab qiladi? Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishdan ko'zlangan maqsad nimada? Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish omillari tizimida musiqiy pedagogik bilimlar va musiqqa o'qitish metodikasining o'rni qanday?

Shaxsning ijodiy qobiliyatini oshirishda, musiqiy ta'lim-tarbiyasining asosiy tarkibiy qismlarini rivojlantirishning ijtimoiy mexanizmlarini aniqlash, musiqaning mazmun-mohiyati orqali ma'naviy salohiyatga ta'sir etuvshi vositalar bilan ishlash, musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish va ijro etishni o'rgatishning estetik tarbiyaga ta'siri, musiqiy ta'lim-tarbiyaning samarali olib borishning davomiyligini ta'minlashda ijodiy qobiliyatga ta'siri juda muhim sanaladi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitiladigan barcha mutaxassislik fanlari, jumladan, musiqqa o'qitish metodikasi, musiqqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash, musiqqa nazariyasi, musiqqa tarixi, cholg'u ijroshiligi, vokal asoslari, dirijyorlik kabi mutaxassislik fanlari bo'yicha olinadigan bilim, ko'nikma va malakalar musiqiy ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish yo'lida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Afsuski, talabalar har doim ham pedagogik mahorat va psixologik bilimlarning muhim qoidalarini amalda qo'llashmaydi. Ko'p bilimlar tegishli ko'nikma va malakalar bilan ta'minlanmagan holda nazariy bo'lib qolaveradi.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarni ijodiy qobiliyatni shakllantirishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi.

- Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda nazariy bilimlar bilan amaliyotning chambarchas bog'liqligi;

- Ijodiy qobiliyatni shakllantirishga oid mashg'ulotlarda, bo'lajak musiqqa o'qituvchilarning kasbiy

malakalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muammoli vaziyatlar yaratish.

- Talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Talablarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma malakalarga quyidagi talablar qo'yiladi.

-musiqiy pedagogik mahoratga oid materiallarni qay darajada o'zlashtirganligi;

-berilgan topshiriqlarga doir asosiy tushuncha va qoidalarini o'zlashtirganligi;

-mashg'ulotlarga oid torshiriq bo'yicha berilgan vazifalarni mustaqil bajara olishi;

-torshiriqlarni bajarishda innovatsion texnika va pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi;

- o'z musiqiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va uni rivojlantira olishi;

-kasbiy faoliyati bo'yicha o'z oldiga maqsad va vazifalarni qo'ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi;

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o'sishini ta'minlaydigan, ijodiy faoliyat va shartlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) Musiqa nazariyasi, tarixi, pedagogikasi, psixologiyasi borasida bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam ravishda, rejali tarzda egallab borish va o'z ustida tinimsiz ishlash;

2) Musiqiy ijroni talab darajasida amalga oshirishni ta'minlash maqsadida cholg'u sozida (yoki xonandalik bo'yicha) muntazam, har kuni reja asosida mashq qilish, bunda rivojlantiruvchi gamma va etyudlar, murakkab cholg'u asarlaridan fragmentlar ijro etib borish, xor yoki ashulashilar ansambli bilan ishlash malakalarini oshirish maqsadida vokal-xor mashqlari, vokalizlar, turli asarlar, ijro repertuaridan asarlar parchalarini yoki to'liq holda solfedjio qilib kuylash, takrorlash, mustahkamlash;

3) Bo'lajak musiqa o'qituvchilarda innovatsion texnika va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikma, malakasi hamda kompyuter dasturlaridan foydalanib slaydalar asosida dars va mashg'ulotlarni tashkil etishga o'rgatishning muhimligi. Musiqa darslari ushuncha taqdimot materiallari tayyorlashda, metod va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, dars va mashg'ulotlarni sifat va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi;

4) Musiqa darslarini musiqiy faoliyat turlari (musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodxonligi) asosida loyihalash va darslarni tashkil etishda bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijodiy qobiliyatlarning shakllanganligi va rivojlanganligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki ko'pchilik musiqa o'qituvchilari vokal ijroda kuchli mahoratga, cholg'u ijrochiligidagi kuchli texnikaga ega ammo o'quvchiga yetarli darajada yetkazib berishda ayrim muammolar kelib chiqadi. Bunda notalarni sanab chalish bilim ko'nikmasining yetarli emasligi. Ba'zi o'qituvchilar musiqa nazariyasi yoki metodikasi yoki tarixini yaxshi biladi o'quvchilarga musiqa haqida umumiy tushunchalarni yetarli darajada beradi, ammo ularning ijroshilik ko'nikma malakasida (milliy bezak berish yoki qo'l texnikasida) kamchilik bo'lishi mumkin. Bundan tashqari jamoa bo'lib kuylash faoliyatida talabalar darslikda berilgan asarni o'rganishlari va o'quvchilar jamoasiga o'rgatishlari lozim bo'ladi. Bunday holarda o'qituvchi qo'shiq o'rgatish bilan birga cholg'u asboda jo'r bo'lib asarni ham chalib, ham aytib o'rgatishi, nota cho'zimlarini hisobga olib, dastlab, qo'shiq so'zlarini bo'g'inlarga bo'lib o'rgatish maqsadga muvofiq. Bu kabi hollarda o'qituvchidan bir vaqtning o'zida ham qo'shiq ijroshiligi va cholg'u asbobini chala olish imkoniyatga ega bo'lish hamda nota savodxonligi ham talab qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilar bunga tayyormi? Muammo nimada?

Muammo shundaki, ko'pchilik o'qituvchilarda o'zlaridagi bor ko'nikma va malakani muntazam oshirib borishmaydi yoki ijro texnikasi haqidagi bilimlarni o'rganuvchilarga yetkazib berish mahorati yetishmaydi. Shu o'rinda, amerikalik psixolog olim Richard Bendlarning fikrini keltirish maqsadga muvofiq. "O'qituvchi o'z fani sohasi bo'yicha keng va chuqur bilimga (kompetensiyaga) ega bo'lishi mumkin, ammo ular shu bilimlarga qanday erishganliklari va uni boshqalarga o'rgatish haqida juda kam bilishadi". Darhaqiqat, musiqa o'qituvchisi savodli musiqachi bo'lish bilan birga, pedagogik bilim, ko'nikma va makalarni egallagan, o'z pedagogik texnikasiga ega, kasbiy faoliyatida har tomonlama ijodkor shaxs bo'lmog'i lozim. Ijodiy qobiliyatlarning shakllanganligi o'qituvchi faoliyatida ayrim pedagogik muammoli vaziyatlarni ijobiy hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning o'ziga xos jihati ularning kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Musiqa o'qituvchisi tasavvuri va badiiy tafakkuri rivojlangan, ma'naviy madaniyatga boy ijodkor bo'lishi kerak. U badiiy-pedagogik muloqot san'atini yaxshi biladigan, odamlarga xayrihoh qiziquvchan, aqlli, bilimli zamonaviy inson bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi milliy va jahon musiqa madaniyati tashuvchisi va targ'ibotchisidir.

Musiqa darslarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va tashkil etish musiqa o'qituvchisidan ijodiy yondoshishni, kasbiy tajribaning faol namoyon bo'lishini talab qiladi.

Musiqiy san'atning ijodiy tabiati, ayniqsa, musiqa o'qituvchisi ijodida katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Bular, musiqa asaridagi kompozitorning g'oyasi, badiiy qiyofasi uning mazmunini anglash asosida izohlashda, musiqa o'qituvchisining musiqiy eshitish qobiliyatlari, musiqiy tajribasi va badiiy ifoda vositalarini anglab yetishi va ulardan samarali foydalanishida juda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, san'at sohasidagi ijodiy faoliyat insondan yuksak tuyg'u, tafakkur boyligini talab qiladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijodiy qobiliyatini shakllantirish jarayoni musiqa ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan "Musiqa o'qitish metodikasi", "Maktab repertuaridan kuy va qo'shiqlar", "Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash", "Cholg'u ijroshiligi" va boshqa mutaxassislik fanlarini o'qitishning mazmunida mujassamlashgan va amaliy mashg'ulotlarda amalga oshirish imkonini beradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, kelajakda o'z faoliyatlarini rivojlantirish ushuncha quyidagi qoidalariga tayanishi lozim:

- o'quv jarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda talaba faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o'zi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni yechish ushuncha sharoit izlash;

- talabalarga bir xil o'qitish usullari va bir turdagi ma'lumotlarni berishdan voz kechish;

- o'rgatilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo'lishi ushuncha ayni shu fan talabani o'zi ushuncha qanshalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilish.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash va unga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirishda talabalarni har bir fanni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish mahoratlarini egallab borishlariga o'rgatish zarur. Masalan, dirijyorlik mashg'ulotlari jarayonida "Talaba treningi", "Men dirijyor"; Musiqa nazariyasi fanini o'qitishda "Aqliy hujum", "Skarabey", "Bahs - munozara", "Muloqot; Xor va xorshunoslik asoslari mashg'ulotlarida "Kishik guruhlarda ishlash", "Differensial guruhlariga bo'lish"; Musiqa tarixi fanini o'qitishda "Aqliy hujum", "Klaster" "Muammoli vaziyat", "Viktorina darsi", "Savol - javob"; Cholg'u ijroshiligi fanini o'qitishda "Individual ishlash", "Kuyini

davom ettir”, “Musika ijod etib”, “Konkurs darslar”, “O’zaro tahlil” Musika o’qitish texnologiyalari va loyihalash, Musika o’qitish metodikasi, Musika o’qitishda innovatsion texnologiyalar fanlarida “Aqliy hujum”, “besh minutlik esse”, “o’zaro tahlil”, “Rolli o’yin” “Klaster”, “Idrok xaritasi” “Venn diagramma”, “Muammoli vaziyatlar” “Rolli o’yinlar”, Guruhlarda ishlash”, “Hamkorlikda o’qitish” “Dars konsert”, “Kishik guruhlarda ishlash”, “SWOD-tahlil hamkorli pedagogik texnologiyasi”, “Assisment texnologiyasi” kabi innovatsion pedagogik texnologiyalari va metodlarni qo’llash va talabalarni bunday faoliyatga tayyorlab borish muhim jihat sanaladi.

Dars, o’quvchi-talabalarning tarbiyalashning uzluksiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi. O’z navbatida ularni tarbiyaviy vazifalari musika o’quv ishini tashkil etishga va uning metodikasiga jiddiy ta’sir o’tkazadi. Masalan: talabalar bilim olish faoliyatini shakllantirish, darsda ijrochilik mahoratini oshiruvchi torshiriqlarini, ijodkorlikka yo’naltiruvchi vositalarni

mustaqil ravishda ishlashning har - xil turlariga ko’proq e’tibor berilishini taqozo etadi. Musika darsining o’ziga xos tomoni shundan iboratki, darsda musika ta’limi vazifalaridan tashqari, badiiy ijodkorlik vazifalari ham qo’yiladi. Ijodkorlik-o’quvchi-talabalarning xotirasini faollashtiradi, fikrlashni, kuzatuvchanlikni, maqsaga intilishni rivojlantiradi [5:43].

Hozirgi zamonda shaxsni ijodiy shakllantirish muammosi o’rta va oliy ta’limning rivojlanish bosqichida muhim masalalardandir. Jamiyatda musiqiy ta’lim – tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirish, bo’lajak musika ta’limi o’qituvchilarning nafaqat muttaxis sifatida tayyor bo’lishi bilan, balki, professional pedagogik ko’nikma va malakalarga ega bo’lishi, ijodiy rivojlanishi bilan ham bog’liq.

Bugungi kunda rivojlanish sur’ati keskin oshib, o’quvchilarini ortib borayotgan talablariga mos kadrlarni tayyorlashda, yuqorida keltirilgan kasbiy tayyorgarlik bosqichlarini Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish jarayonidan shakllantirib borishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi Qonuni. (23.09.2020) // O’RQ-637-son Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 46-modda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari.
 2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: — O’zbekiston, 2017.
 3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T. “O’zbekiston”, – 2017.
 4. Qodirov R. “Musika pedagogikasi”. T., - 2013. 164 b.
 5. Karimova D. Musika o’qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik T. 2012. 210 b.
 6. Davronova G.M. “Musika o’qitish metodikasi” – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. 161 b.
 7. Davronova G.M. “Musika o’qitish texnologiyalari va loyihalash” - T. 2019. 166 b.
 8. Yo’ldoshev I.A. Ta’limda zamonaviy texnik vosita va texnologiyalar . Monografiya – T.: “Fan va texnologiya” 2015. 172 b.
 9. Norpo’latova X. Zamonaviy pedagogikada ijod va ijodiy qobiliyat masalalari. // “MADANIYA VA TA’LIM: DAVR MULOQOTI” // ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015. - 856 b.
- REZYUME.** Ushbu maqolad bo’lajak musika ta’limi o’qituvchilarini zamon talablari darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlashd ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning muhim pedagogik, metodik jihatlari yoritilgan.
- РЕЗЮМЕ.** В данной статье выделены важные педагогико-методические аспекты формирования творческих способностей при подготовке будущих педагогов музыкального образования к профессиональной деятельности на уровне современных требований.
- SUMMARY.** In this article, the important pedagogical and methodical aspects of the formation of creative abilities are highlighted in the preparation of future music education teachers for professional activities at the level of modern requirements.

BO’LAJAK MUSIKA O’QITUVCHILARINI XOR DIRIJORLIGI FAOLIYATIGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

J.A.Xodjayev – dotsent

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tayanch so’zlar: dirijorlik san’ati, dirijor, dirijorlik fani, oliy ta’lim, maktab musika ta’limi, musika o’qituvchisining pedagogik faoliyati, bo’lajak musika o’qituvchisi, musika san’ati.

Ключевые слова: дирижерское искусство, дирижер, дирижерская наука, высшее образование, школьное музыкальное образование, педагогическая деятельность учителя музыки, будущий учитель музыки, музыкальное искусство.

Key words: conducting art, conductor, conducting science, higher education, school music education, pedagogical activity of a music teacher, future music teacher, musical art.

Ma’lumki o’zbek qo’shiqchilik madaniyati o’zining rivojlanish an’alariga ko’ra asosan monodik (bir ovoqli) o’zakda shakllanib kelgan. Tabiiyki, o’lkamizga Yevropa musika janrlari va ko’p ovozlilikka asoslangan shakllarni kirib kelishi natijasida o’zbek musiqasida ham bu janrlarni va ko’p ovozlilikni tadbiq etilishi jahon xalqlari musika madaniyatidagi o’zaro bir-birini boyitish jarayonini natijasi sifatida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Musiqiy janr va shakllar, xususan, xor, orkestr, musiqali drama, simfoniya, oratoriya, operalarni paydo bo’lishi jahon xalqlarining zamonaviy musika madaniyatiga keng ravishda kirib borgan bu san’at turlarini bizning mamlakatimizda ham milliy musiqamizni o’ziga xos xususiyatlariga muvofiq o’zlashtirilishiga erishildi.

Ko’p ovoqli musika janri havaskorlik, professional jamoalar ijrosi bilan cheklanmasdan o’quv yurtlarida

musika maktablari, o’rta umumta’lim maktablari musika amaliyotiga ham tadbiq etildi. Maktablar, o’rta maxsus bilim yurtlari, oliy ta’lim (musika ta’limi ixtisosliklari bo’lgan) tizimida xor ijrochiligi o’quv rejalariga kiritildi va fan sifatida o’qitila boshlandi. Xor ijrochiligi ommaviy qo’shiqchilik san’ati sifatida maktab musika darslarida yetakchi faoliyatga aylandi. Bu esa o’z navbatida umumta’lim maktablari uchun maxsus musika o’qituvchilari tayyorlashni yo’lga qo’yilishiga olib keldi [4].

Oliy pedagogik ta’limda musika o’qituvchilarini maktab musika o’qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash musika san’atining bir necha yo’nalishlari bo’yicha bo’lgusi kadrlarda zarur bilim, ko’nikma, malakalarini egallashlarini taqozo etadi. Bir soatlik dars jarayonidagi musika mashg’uloti o’qituvchidan musika nazariyasi, tarixi,